



ZAMONAVIY BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBAT MUHITINI YAXSHILASH YO`LLARI

Yusupov Ravshanbek Musayevich

AT "Aloqabank" Andijon HKXKM Bank ishi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7726615>

ARTICLE INFO

Received: 04th March 2023

Accepted: 12th March 2023

Online: 13th March 2023

KEY WORDS

Kredit, bank xizmatlari, raqobat, Markaziy bank, tovar, narx, davlat kapitali, biznes, iqtisodiy toifa.

ABSTRACT

Ushbu maqolada zamonaviy bank xizmatlari bozori haqida alohida to'xtalinib o'tiladi. Bank xizmatlari bozorida raqobat tushunchasiga izoh berilib, raqobat muhitini yaxshilash yo'llari to'g'risida aytib o'tiladi.

Zamonaviy bank xizmatlari ishining asosiy yo'nalishlari depozit (omonat) qabul qilish, kreditlar berish va mijozlarga kredit-hisob xizmati ko'rsatishni amalga oshirish hisoblanadi. Bank qimmatbaho qog'ozlarni saqlash, saqlashga o'tkazilgan qimmatbaho qog'ozlarni joriy boshqarish, birja topshiriqlarini bajarish, seyflarni ijaraga berish kabi pulli xizmatlar ham ko'rsatadi. Turli iqtisodiy xizmatlarni amalga oshiruviga ko'ra hozirgi vaqtda bankning quyidagi asosiy turlari faoliyat ko'rsatadi: markaziy (emissiya) banki va tijorat banki. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini shakllantirish va rivojlantirish strategiyasi iqtisodiyotni xo'jalik yuritishning bozor sharoitlariga bosqichma-bosqich o'tkazish dasturiga to'g'ri keladi. Keyingi davrda bank islohotlari davomida milliy bank tizimining 2 bosqichli strukturasi (yuqori bosqichda — Markaziy bank, quyi bosqichda — tijorat banklari) huquqiy jihatdan mustahkamlandi; bankning soni va ular ko'rsatadigan xizmat turlari ko'paydi. 2019 — 2022-yillarda bank qonunchiligi yanada takomillashdi. Respublikada bank tizimining quyi bosqichini paychilik, aksiyadorlik asosida, shuningdek chet el kapitali ishtirokida tashkil etilgan bank, ularning filial va vakolatxonalari, kooperativ va xususiy bank tashkil etadi. Zamonaviy bank xizmatlari sohasini monopoliyadan chiqarish bank islohotlarining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Dastlabki bosqichda bu asosan iqtisodiyotning ayrim sohalariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan bankni tuzish yo'li bilan amalga oshirildi. Ixtisoslashtirilgan bankning tashkil etilishi bozorga yo'naltirilgan bank tizimini yaratish yo'lidagi zaruriy va tabiiy bosqich bo'ldi. Keyingi yillarda „Asaka“ ixtisoslashtirilgan davlat-aksiyadorlik tijorat banki, „Aloqabank“ aksiyadorlik tijorat banki, „Toshkent ijtimoiy uy-bank“ aksiyadorlik tijorat banki, „Uzsayohatinvestbank“ O'zbekiston aksiyadorlik tijorat investitsiya banki va „Zamin“ ixtisoslashtirilgan davlat aksiyadorlik ipoteka banklari tashkil etildi. „O'zdehqonsanoatbank“ aksiyadorlik tijorat banki „Paxtabank“ ixtisoslashtirilgan aksiyadorlik tijorat bankiga, „O'zjamg'armabank“ Xalq bankiga aylantirildi. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini rivojlantirish oldida turgan asosiy vazafalardan biri bu bank xizmatlari sifatini



oshirish, xizmatlar ko'lamini kengaytirish, ularni rivojlangan davlatlar banklari darajasiga yetkazish va bank xizmatlari bozorida raqobat muhitini yaratishdan iborat. Yurtboshimiz ta'бири bilan aytganda, bu borada zamonaviy bank xizmatlarini rivojlantirish va bank xizmatlarini ommabopligiga alohida e'tibor qaratish lozim. O'zbekiston Prezidentining 2017 - yil 7- fevraldagi farmoni bilan qabul qilingan "2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da ham "bank tizimini isloh qilish, banklar depozit bazasining kapitalizatsiyasini chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchligini mustahkamlash, istiqbolli investision loyihalar hamda kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashtirishni yanada kengaytirish" vazifasi belgilab berilgan.

Darhaqiqat, tijorat banklari xizmatlar bozorining rivoji nafaqat xalq xo'jaligiga kapitalni taqsimlashga, balki aholiga axborot berish, to'lovlarni tezlashtirish va boshqa bir qancha qulaylik va imkoniyatlarni yaratib beradi. Shu asosda bizning oldimizda bank xizmatlari sohasida xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va ushbu tajribaning ijobiy jihatlarini O'zbekiston bank tizimidagi ichki holatdan kelib chiqib joriy etish raqobatbardosh muhitni yaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Bunda zamonaviy bank xizmatlari bozorida sog'lom raqobat muhitini yaratish ham muhim masalalardan sanaladi. Bank xizmatlari bozorida raqobat tushunchasiga alohida to'xtalib o'tishimiz lozim.

Raqobat — mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi (korxonalar) o'rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurash. Raqobat ko'p qirrali iqtisodiy hodisa bo'lib, u bozorning barcha sub'yektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. Resurslarni yetkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobat o'zlarining iqtisodiy resurslarini (kapital, yer, ishchi kuchi) yuqori narxda sotish uchun amalga oshiriladi. Ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobat bozor munosabatlari rivojlangan, iqtisodiyot to'liq erkinlashgan sharoitda yaqqol namoyon bo'ladi.

Raqobat iste'molchilar o'rtasida ham yuz berib, bank xizmatlarini qulay va arzon baholarda sotib olishga qaratiladi, ya'ni xaridor har bir sarflangan pul birligi evaziga ko'proq nafilikka ega bo'lishga harakat qiladi, arzon va sifatli tovarni tezroq sotib olish uchun kurashadi. Raqobatda ishlab chiqaruvchilar o'rtasida sarflangan xarajatlarga ko'proq foyda olish, shu foyda orqasidan quvish natijasida tovarlarni sotish doiralari, ya'ni qulay bozorlar, arzon xomashyo, energiya va arzon ishchi kuchi manbalari uchun kurash boradi. Raqobat asosida ishlab chiqaruvchilarning mulk egasi sifatida alohidalashuvi va mustaqil bo'lishi, manfaatlar to'qnashuvi yotadi. Chunki har bir mulk egasining o'z manfaati bo'lib, ular shu manfaatga erishish uchun intiladi. Mulk egasining tovar ishlab chiqarish va boshqa barcha sohalardagi faoliyati shu manfaatga bo'ysundirilgan bo'ladi. Raqobat mavjud bo'lishining yana bir sharti — bu bank xizmatlari munosabatlarning, ma'lum darajada rivojlangan bank tizimining bo'lishidir. Shu sababli raqobatning asosiy sohasi zamonaviy bank tizimi hisoblanadi.

Yangi texnologiya joriy qilish, talabga javoban tovar turlarini tez o'zlashtirish, malakali ishchi kuchiga ega bo'lish va zamonaviy marketing xizmatidan foydalanish kabilar raqobat kurashidan g'olib chiqish shartiga aylanadi. Monopoliya raqobatga zid, chunki u tovar ishlab chiqaruvchiga tanho hukmronlikni ta'minlab, o'zaro bellashuv uchun sharoit qoldirmaydi.



Raqobat kurash yo'lini tanlash jihatdan ham halol va g'irrom raqobatga bo'linadi. Halol raqobat bozordagi kurashda qabul qilingan, hammaga maqbul usullar bilan olib boriladi, bozor qoidalariga asoslanadi. G'irrom raqobatda taqiqlangan va qoralangan usullar, ya'ni qalloblik, ko'zbo'yamachilik, so'zida turmaslik, aldash, iqtisodiy josuslik, qo'porovchilik va hatto jismoniy zo'ravonlik kabi jinoyatkorona usullar qo'llaniladi. Bozor iqtisodiyoti aslida faqat halol raqobatni tan oladi. Raqobat iqtisodiyotni sog'lomlashtirib turadi. Raqobatdan jamiyat manfaatlari yo'lida foydalanish va uni nazorat qilishda davlat tomonidan qabul qilinadigan monopoliyaga qarshi qonunlar muhim ahamiyatga ega.

Raqobat olib borish usuliga ko'ra, narx bilan raqobat va narxsiz raqobatga bo'linadi. Narx bilan raqobatlashuv tovarlar yoki xizmatlarni raqiblarga Karaganda foydani vaqtinchalik kamaytirish hisobiga arzon narxda sotishni bildiradi (narxdan tashlamalar, ulgurji haridorlarga imtiyozlar va boshqalar), Narxsiz raqobatga haridorlarni egallash va saqlab turishning narxlarni arzonlashtirish bilan bog'liq bo'lmagan har qanday qonuniy usullari kiradi (sifatini oshirish, xizmat muddatini uzaytirish, ekologik tozalik, xavfsizlik va boshqalar)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-iyuldagi "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra zamonaviy bank xizmatlari bozorida raqobat muhitini yaratish juda yuqori darajada belgilab qo'yildi. Qonunga ko'ra, ba'zi bir sabablar bank xizmatlarida sog'lom raqobat muhitini yaratilishi uchun salbiy omillar deb ko'rsatiladi:

- iqtisodiyotda davlatning haddan ziyod yuqori turishi;
- narxlarning haddan ortiq tartibga solinishi;
- imtiyoz va preferensiyalarning tartibga solinishi;
- biznes subyektlariga yuqori tartibga solish yuki va tarmoq tartibga soluvchi organlarning raqobatni rivojlantirishdan manfaatdor emasligi;
- tabiiy monopoliya holatini suiiste'mol qilish;
- raqobatga qarshi holatlarga qarshi kurashish huquqiy mexanizmlarning takomillashmaganligi.

Chet el tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'z mijozlariga yanada yuqori sifatli xizmatlar ko'rsatadigan tijorat banklari, albatta, cheklangan xizmatlar turiga ega bo'lgan banklarga qaraganda ustunlikka ega. Keyingi paytlarda yirik tijorat banklari mijozlarga keng qamrovli xizmat ko'rsatishga o'tmoqda. Bu shuni anglatadiki, kredit hisob-kitob va kassa xizmatlaridan tashqari, banklar o'z mijozlariga boshqa xizmatlarning butun turini taqdim etadi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bank tizimida xizmatlar ko'rsatishning bozor mexanizmlari joriy etilmoqda, ularning turlari kengaytirilmoqda, tadbirkorlar va aholi uchun moliyaviy ochiqlik oshib bormoqda.

Birinchidan, banklar mijozlar uchun hisob-kitob va buxgalteriya xizmatlarini to'liq o'z zimmlariga oladilar, ya'ni amortizatsiya va pensiya hisoblarini yuritish, buxgalteriya operatsiyalari, soliqlarni hisoblash va to'lash, ish haqini hisoblash, omborlar zaxiralari dinamikasini kuzatish, sotish va operatsion xarajatlarni tahlil qilish, loyihalarni investitsiyalashtirish balansini tartibga solish. va kompaniyalar uchun konsolidatsiyalangan balanslar. Ikkinchidan, yirik kompaniyalar va banklar o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishning muhim yo'nalishi - bu hujjatlarni saqlash mas'uliyatini ikkinchisiga



o'tkazish va oxirgi yillarda hisob-kitob hujjatlari harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni har kuni, haftalik va oylik qoldiqlarni ma'lumotlarni yetkazish.

Keng mijozlar bilan bank operatsiyalarini amalga oshirish bank tizimi rivojlangan dunyoning barcha mamlakatlarida zamonaviy bank faoliyatining muhim xususiyatidir. Masalan, Buyuk Britaniyaning eng yirik tijorat banklari (kliring banklari) o'z mijozlariga xizmat ko'rsatish uchun 100 ga yaqin operatsiyalarni, AQShdagi tijorat banklari - 150 dan ortiq operatsiyalarni, Yaponiya banklari esa - 300 ga yaqin turlarini amalga oshiradilar.

Zamonaviy sharoitda, transformatsion iqtisodiyoti bo'lgan Evropadagi bank xizmatlari bozorida chet el kapitali tomonidan boshqariladigan banklarning roli oshib bormoqda (ustav kapitalining 50% dan ko'prog'i norezidentlarga tegishli bo'lgan banklar).

Ba'zi tadqiqotchilar ushbu banklarning mavjudligi aholining umuman bank tizimiga bo'lgan munosabatiga qanday ta'sir qilishini baholashga harakat qilmoqdalar. Ular Markaziy va Sharqiy Evropadagi o'tish davridagi iqtisodiyotdagi tendentsiyalarni taqqoslaydilar. Raqobat kurashi tizimsizdek tuyulsa-da, bozor qatnashchilarining manfaatlarini himoya qilish borasida ma'lum bir strategiyaga asoslanadi.

Raqobat to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun avvalo «raqobat» tushunchasi haqida to'xtalib o'tish lozim. Eslatib o'tish joizki, uzoq vaqt davomida «raqobat» tushunchasi bitta maqsadni – maksimal foyda olishdan manfaatdor bo'lgan ikki va undan ortiq shaxs (raqobatchi)larning mustaqil raqiblik kurashini anglatib kelgan.

Raqobat qator muhim funksiyalarni bajaradi. Ular orasida eng asosiylari – tovar va xizmatlarning jamiyatda bozor qiymatini aniqlash va belgilash, muayyan mehnatni jamiyat uchun zarur mehnatga aylantirish hisoblanadi. Raqobat tufayli individual qiymatlarni tenglashtirish va mos ravishda, tashkilotni boshqarishdagi, mehnat unumdorligidagi farqlar asosida foyda hajmini differentsiatsiyalash ro'y beradi.

Raqobat tarmoqlararo nuqtai nazardan o'rtacha foyda me'yorini shakllantiradi, jamiyatga kerakli tarmoqlar foydasiga kapitalning oqib o'tishiga olib keladi. Raqobat shubhasiz, qachon, qanday va qancha tovar hamda xizmatlar taklif etish va ishlab chiqish maqsadga muvofiqligini ko'rsatgan holda bozor foydasiga ishlaydi.

«Raqobat» tushunchasi klassik va neoklassik iqtisodiy nazariyada eng muhim va hozirgi sharoitda keng foydalanilgan tushuncha bo'lib, ko'plab iqtisodchilarning jiddiy hamda muttasil e'tiborini jalb etmoqda va ular tomonidan turlicha talqin etilmoqda.

Raqobat muammolariga bag'ishlangan adabiyotlarda uni ta'riflashga uch xil yondashuv mavjud. Birinchi yondashuv raqobatni bozordagi musobaqa sifatida tavsiflaydi. Klassik iqtisodiy nazariya uchun xos bo'lgan ikkinchi yondashuv raqobatni talab va taklifni muvozanatga keltiradigan bozor mexanizmining elementi sifatida ko'rib chiqadi. Uchinchi yondashuv bozorni tushunishning zamonaviy nazariyasiga asoslanadi va raqobatga tarmoq bozori turlarini belgilab beradigan toifa sifatida qaraydi.

O'zbekiston Respublikasining «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida»gi qonuniga ko'ra, «raqobat xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning musobaqalashuvi bo'lib, bunda ularning mustaqil harakatlari har bir sub'ekt tomonidan



tegishli tovar bozoridagi tovarlar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini cheklaydi¹».

Ushbu qonunda raqobat faqat tovar bozorlariga tegishliligi belgilanadi. E'tirof etish kerakki, mamlakatimiz qonunchiligida bank xizmatlari bozorlaridagi raqobat e'tiborga olinmagan. Bank xizmatlari bozorida tijorat banklari o'rtasida raqiblik qilish jarayoni sifatida belgilanadi. Tijorat banklarining xizmatlari yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini jalb qilish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq faoliyat sifatida tavsiflanadi. Bank xizmatlari sifatida bank operatsiyalari va bitimlarini amalga oshirish, qimmatli qog'ozlar bozoridagi xizmatlari, moliyaviy ijara (lizing) shartnomalari, pul mablag'larini ishonch asosida (trast) boshqarish, shuningdek, moliyaviy xarakterdagi boshqa xizmatlar ko'rib chiqiladi. Bank xizmatlari bozorida raqobat, banklar o'rtasidagi musobaqa, raqiblik kurashi bo'lib, bunda, banklarning mustaqil harakatlari ulardan har birining bank xizmatlarini taqdim etishning umumiy shartlariga bir tomonlama ta'sir ko'rsatish imkoniyatini chegaralaydi. Bank xizmatlari bozorida raqobatni o'rganishda uning o'ziga xosliklarini ochib beradigan quyidagi asosiy tushunchalarni aniqlashtirib olish zarur:

Raqobat sohasini bank xizmatlari sohasi, mahsulot (xizmat) turlari va raqobatchilarning mustaqil raqiblik qilishi amalga oshiriladigan bozorlar ifodalaydi. Bank xizmatlari bozorida raqobat predmeti, tijorat banklari o'rtasida mijozlar hurmatini qozonish va ularni bank xizmatlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyojini qondirish hisoblanadi.

Raqobat predmetini torroq ma'noda tushunish xuddi shunday xizmatlar yoki ularning o'rnini bosadigan xizmatlar ko'rsatuvchi raqobatchilarni aniqlashga, kengroq ma'noda tushunish esa raqobatchilar to'plamining ham kengroq bo'lishiga olib keladi – bunda, ushbu xizmatga ehtiyojini u yoki bu darajada qondirishi yoki uni «boshqa» ehtiyojga «o'tkazishi», iste'molchining hayot faoliyatidan umuman chiqarib tashlashi mumkin bo'lgan hamma ishtirok etadi. Bank xizmatlari bozorida raqobat ob'ekti bank xizmatlari iste'molchisi – mijoz hisoblanadi va bu holatda u tanlash imkoniga ega bo'ladi.

Bank raqobatining mohiyati bozorda bank xizmatlarining eng muhim xususiyati – uning raqobatbardoshligi bilan eng aniq ifodalanadi. Tijorat banklarining raqobatbardoshligi banklararo raqobatning kuchayishi sharoitida bank boshqaruvining dolzarb maqsadiga aylanmoqda².

Bozor munosabatlari sub'ektlari o'zining iqtisodiy pozitsiyalarini kuchaytirish va foyda ortidan quvishga intilgan holda raqobatning chegaralovchi «kishan»laridan xalos bo'lishga harakat qiladilar.

Bank xizmatlari bozorida raqobatning rivojlanishiga doir uchta asosiy muammoni ajratib ko'rsatish mumkin:

- mamlakat moliya bozorida xalqaro tashkilotlar tomonidan global raqobatning kuchayishi;
- mamlakat birlashmalari, sub'ektlari va davlat kapitali ishtirokidagi banklar rolining ustunligi;
- biznesda ma'muriy va iqtisodiy xarajatlarning pasayishi hisobiga bank xizmatlari mahalliy sektori raqobatbardoshligining ortishi.

1 O'zbekiston Respublikasining «Raqobat to'g'risida»gi Qonuni. T., 2012 yil 6 yanvar, O'RQ-319-son.

2 Negrov V.P., Radyukova Ya.Yu. «Ponyatie, suщnost i osobennosti bankovskoy konkurensii» // Sotsialnoekonomicheskie yavleniya i protsessi, 2015, №4



Bank raqobatining mohiyati bank xizmatlarining bozordagi eng muhim tavsifnomasi – raqobatbardoshligida èrqin aks etadi.

Moliya bozorida raqobat bozor raqobatining turlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, bank tizimidagi raqobat iqtisodiyatning boshqa sektorlariga qaraganda ancha murakkab. Uning o'ziga xosligi ko'p jihatlardan biri bilan belgilanadi³.

Tadqiqot predmeti haqidagi tasavvurlar va raqobatbardoshlik haqidagi mashhur ta'riflar tahlili bu tushuncha mohiyatini ochib berish va uning boshqa iqtisodiy toifalar orasidagi o'rnini aniqlash uchun shakl-shubhasiz muhim bo'lgan qator jihatlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi:

- xizmatning raqobatbardoshligi, buning iste'molchi uchun jalb etuvchanlik o'lchamidir;
- xizmatning jalb etuvchanligi yig'ilgan xilma-xil (qarama-qarshi) talablarni qondirish darajasi bilan belgilanadi;
- bildirilgan talablar tarkibi, ularning ustuvorligi xizmatning turiga ham, uning iste'molchisi turiga ham bog'liq bo'ladi;
- raqobatbardoshlik iqtisodiy toifa sifatida muayyan bozorga va muayyan o'xshash toivarga nisbatan ko'rib chiqiladi;
- raqobatbardoshlikka dinamik xarakter xos – uni faqat muayyan vaqtga nisbatan, bozor kon'yunkturasining o'zgarishlarini hisobga olgan holdagina ko'rib chiqish maqsadga muvofiq;
- raqobatbardoshlik muammosi faqat muvozanatsiz holatda turgan nostasionar, nodefisit bozorga tegishli;
- raqobatbardoshlik darajasi ko'rib chiqilaётgan xizmat haёtiylik davrining qaysi bosqichida ekanligiga bog'liq;
- bozorda faqat ma'lum bir ulushga ega bo'lgan xizmatning raqobatbardoshligi haqida gapirish o'rinli.

Bank raqobat sub'ektlari nafaqat banklar, balki bank bozorida ishtirok etuvchi barcha boshqa moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan tashkilotlardir. Raqobat- raqobatchilarni rag'batlantiruvchi omil:

- bank xizmatlari turlarini kengaytirish
- bank mahsulotlari sifatini oshirish
- bu mahsulotlar uchun narxlarni tartibga solish

Raqobat banklarni yanada samarali ishlash usullariga o'tishga undaydi.

Bank raqobatining mohiyati, bozorda bank xizmatlarining eng muhim xususiyati - uning raqobatbardoshligi bilan ifodalanadi⁴

3 Лутошкина Н.К. «Банковская конкуренция и конкурентоспособность: сущность, понятие, специфика». // Финанси и кредит. №8, 2011.

4 Лутошкина Н.К. «Банковская конкуренция и конкурентоспособность: сущность, понятие, специфика.» // Финанси и кредит. №8, 2011.



Tijorat banki raqobatbardoshligi uning raqobatbardosh xizmatlar ishlab chiqish va sotish yo'li bilan muayyan bozor (sotuv mintaqasi) talabiga muvaffaqiyat bilan javob qaytarish qobiliyati sifatida tavsiflanadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy bank xizmatlari bozorida raqobat muhitini yaxshilash yo'llari bu iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa Banklararo raqobat va banklararo bozorda resurslarni jalb qilishdagi o'zaro munosabatlar va barcha bank xizmat turlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan raqobatni kengaytiradi.

References:

1. Ikramova N.R. O'zbekistonda chakana bank xizmatlari: xorij tajribasi va rivojlanish istiqbollari // "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2014 yil, 1-bet.;
2. RAXMATULLAYEVA F.M., ABDULLOYEV A.J., GIYAZOVA N.B., NARZULLAYEVA G.S. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT VA RAQOBAT MENEJMENTI O'quv qo'llanma.2021.
3. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonun, T.: "O'zbekiston", 1995.
4. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun, T.: "O'zbekiston", 1996.
5. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
6. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 104 b.
7. Ortiqov O. A. Bank menejmenti va marketingi. O'quv qo'llanma. T: - Iqtisod-moliya, 2015 y. 220 b.
8. Mirzaev F.I. "Banklararo raqobat: mohiyati, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari" T: "Moliya", 2008 y.
9. Gluxov V.V. Menedjment: Uchebnik. 3- izd.- SPb Piter, 2009.- 608.
10. Osnovi menedjmenta: uchebnoe posobie. /L.V. Plaxova, T.M. Anurina,
11. S.A. Legostayeva i dr.- M.: KNORUS, 2009.- 496 s.
12. Lamben. J.J., Chumpitas R., Shuling I. Menedjment, orientirovanniy na rinok. 2-e izd. /Per. s angel. Pod. red. V.B. Kopchanova.- SPb.: Piter, 2008. - 720 s.
13. Druker Piter F. Menedjment: zadachi, obyazannosti, praktika: - M.: "I. D. Vilyams", 2008. - 992 s.
14. www.cbu.uz.
15. www.finance.uz.